

Inson ontogenezing yoshga bog'liq fiziologik o'zgarishlari

Dilura O'tkiroj qizi Nabijonova

Xusnora Alijonova

Ilmiy rahbar: Rano Amanullayevna Aliyeva

Andijon davlat chet tillar instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson ontogenezi davomida ro'y beradigan yoshga bog'liq fiziologik o'zgarishlar chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Ontogenet - bu organizmning urug'lanishdan boshlab to qariguncha bo'lgan individual rivojlanish jarayonini o'z ichiga oladi. Har bir yosh bosqichi organizmdagi tuzilma va funksiyalarni turlichay ifodalaydi. Yosh o'tishi bilan fiziologik tizimlarning faoliyati ham o'zgaradi, bu esa sog'liq holati, moslashuvchanlik darajasi va organizmning umumiy hayotiy faoliyatiga ta'sir qiladi. Maqolada aynan shu o'zgarishlarning asosiy bosqichlari, sabablari va ularning fiziologik mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ontogenet, fiziologik o'zgarishlar, yosh fiziologiyasi, qarish, rivojlanish bosqichlari, biologik tizimlar

Age-related physiological changes in human ontogenesis

Dilura O'tkiroj kizi Nabijonova

Xusnora Alijonova

Scientific supervisor: Rano Amanullayevna Aliyeva

Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article provides a deep scientific analysis of age-related physiological changes occurring during human ontogenesis. Ontogenesis includes the process of individual development of an organism from fertilization to aging. Each age stage expresses the structure and functions of the organism differently. With age, the activity of physiological systems also changes, which affects the state of health, the level of adaptation and the general vital activity of the organism. The article covers the main stages, causes and their physiological mechanisms of these changes.

Keywords: ontogenesis, physiological changes, age physiology, aging, stages of development, biological systems

Kirish

Inson biologik mavjudot sifatida doimiy ravishda rivojlanib boradi. Tug'ilishdan boshlab organizmda morfologik, funksional va biokimyoviy o'zgarishlar sodir

bo‘ladi. Ontogenez deganda ana shu jarayonlar majmui tushuniladi. Fiziologik jihatdan bu o‘zgarishlar nafaqat organizmning o‘sishi, balki uning moslashuvi, muvozanatni saqlashi va atrof-muhit ta’sirlariga javob qaytarishini ham ta’minlaydi. Yosh davrlariga qarab bu o‘zgarishlar turli darajada kechadi va turli tizimlarning ishtirokida amalga oshadi. Mazkur maqolada yoshga qarab kuzatiladigan fiziologik o‘zgarishlar ko‘rib chiqiladi.

Material va metodlar

Maqolani yozishda ilmiy adabiyotlar, fiziologiya faniga oid darsliklar, ilmiy maqolalar, biologik tadqiqotlar, shuningdek, yosh fiziologiyasi va tibbiyotga oid nazariy manbalar asos qilib olindi. Turli yosh guruhlaridagi odamlar fiziologiyasiga oid statistik ma'lumotlar va tahillilar ham o‘rganildi. Shuningdek, xalqaro ilmiy maqolalardagi ontogenezga oid so‘nggi yondashuvlar ham ko‘rib chiqildi.

Natija va muhokama

Yoshga bog‘liq fiziologik o‘zgarishlar quyidagicha ifodalanadi: go‘daklik davrida asosiy e’tibor metabolik jarayonlarga, asab tizimining shakllanishiga va immun tizimining rivojlanishiga qaratiladi. O‘smirlik davrida esa endokrin tizim faollashadi, jinsiy balog‘at kechadi va fiziologik o‘sish tezlashadi. Yosh ulg‘aygan sari organizmning asosiy tizimlari nisbatan barqarorlashadi. Keksalikda esa yurak-qon tomir tizimi sekinlashadi, asab impulslarining yetkazilishi sustlashadi va immunitet zaiflashadi. Bu o‘zgarishlar organizmning kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatini ham belgilaydi.

Xulosa

Ontogenez jarayonida har bir yosh bosqichi o‘ziga xos fiziologik tavsiflarga ega. Bu o‘zgarishlarni chuqur o‘rganish shifokorlar, biologlar va pedagoglar uchun juda muhim hisoblanadi. Fiziologik o‘zgarishlarni bilish orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, yoshga xos muammolarni oldindan aniqlash va profilaktika choralar ko‘rish mumkin. Maqola natijalari yoshga oid gigiyena, psixofiziologik holat va moslashuv imkoniyatlarini baholashda ham foydali bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Solieva M. M. Inson fiziologiyasi. - Toshkent, 2019.
2. Rahimov A. A. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. - Samarqand, 2021.
3. Sheralieva D. Biologik rivojlanish asoslari. - Andijon, 2020.